

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041954>

O'ZBEK TILI KORPUSIDA SO'Z BIRIKMALARINI SINTAKTIK TEGLASH

Xidirov Otabek Jo'raboyevich

JDPU, f.f.f.d(PhD).dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili korpusida so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qoliplariga asoslangan sintaktik teglash tizimi va modellari tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: Korpus, sintaktik teglash , model, sintaktik birliklar, so'z birikmasi, lison-nutq.

Аннотация: В статье проанализировано системы тегов и моделей, основанные лингвистическими синтактическими шаблонами словосочетаний в корпусе узбекского языка.

Ключевые слова: корпус, синтаксическая, модель прикосновения, синтаксические единицы, лексика.

Annotation: In this Uzbek corpus, article analyzes the tagging system and models based on the linguistic syntactic patterns of language syntactic compounds.

Key words: corpus, syntactic touch, model, syntactic units, vocabulary, language-speech.

Mustaqil so'zlarning nutq jarayonidagi erkin bog'lanishi sintaktik aloqa deyiladi: *Suvlar tiniq, toza havo*. Sintaktik birlik bir necha a'zoli bo'ladi. Faqat gap bir a'zoli bo'lishi mumkin. Nutqda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanishi har bir tilning lisoniy-sintaktik qolipi, leksemaning birikish imkoniyati asosida sodir bo'ladi. So'zning sintaktik munosabatga kirishuvi natijasida hosil bo'lgan sintaktik qurilma so'z qo'shilmasi deyiladi. Bu so'zning bir-biriga ergashishi (*a'luchi o'quvchi*) yoki tenglashishi (*olma va anor*) shakllarida bo'lishi mumkin. Demak, so'zlar orasidagi

aloqa ikki xil: tenglashish va tobelanish. Ular esa uch xil hosilani beradi: so‘z birikmasi, so‘z tizmasi va gap. Tenglashish aloqasi asosida so‘z tizmasi hosil bo‘lsa, tobelanish aloqasi asosida so‘z birikmasi va gap shakllanadi¹.

Korpus sintaktik razmetka tizimida kollokativ qidiruv juda muhim: qidiruv natijasining sifati qidiruvning mukammalligi bilan to‘g‘ri proporsional. Kollokativ qidiruvni tashkil etish uchun korpus birliklari so‘z birikmasi va so‘z qo‘silmasini ajratuvchi tegga ega bo‘lishi talab qilinadi.

So‘z birikmasi birikuvchi so‘zlarning hokim-tobelik munosabati asosida hosil bo‘ladi. Bunda izohlanuvchi a’zo kengayuvchi, izohlovchi a’zo *kengaytiruvchi* a’zo deb yuritiladi: *kitobni o‘qimoq* (kitobni – izohlovchi, kengaytiruvchi, o‘qimoq – izohlanuvchi, kengayuvchi).

Tobelanish aloqasida hokim a’zo hokimlik mavqeい va vositasiga, tobe a’zo tobelik mavqeい va uni ta’minlovchi vositaga ega bo‘ladi. *kitobni o‘qimoq* birikmasida *kitobni* a’zosi oldin kelib, tushum kelishigi ko‘rsatkichi bilan shakllangan bo‘lsa, *o‘qimoq* a’zosi hokimlik mavqeい va shakliga ega. A’zolarning hokim-tobeligini bildiradigan shakliy ko‘rsatkich har doim ham bo‘lavermaydi. Morfologik ko‘rsatkich bo‘limganda tobelik va hokimlik belgisi birikuvchi so‘zlarning lug‘aviy-grammatik tabiatidan, sintaktik o‘rnidan hamda tartib va ohangdan bilinib turadi. Masalan: tiniq suv (tobe+hokim), suv tiniq (tobe+hokim)².

Morfologik ko‘rsatkichsiz tobe-hokimlik munosabatini aniqlash uchun lisoniy-sintaktik qolip hamda morfologik teglar tizimidan foydalanish o‘rinli. Masalan, *qiziqarli kitob* birikmasida morfologik ko‘rsatkich yo‘q. Kontekstda bu birliklarning so‘z birikma ekanligini lisoniy-sintaktik qolip bilan aniqlash mumkin. Lisoniy-sintaktik qolipda qaysi so‘z turkumi o‘zaro birikishi ko‘rsatib berilgan. Korpus birliklari morfologik teglangan bo‘lsa, teg va lisoniy-sintaktik qolip asosida

¹Замонавий ўзбек тили: Синтаксис./ Муаллифлар жамоаси. Масъул мухаррирлар X.Ф.Неъматов, Р.Сайфуллаева. ЎзР Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент.: Мумтоз сўз, 2011. – 312 б. – Б. 26.

²Замонавий ўзбек тили: Синтаксис./ Муаллифлар жамоаси. Масъул мухаррирлар X.Ф.Неъматов, Р.Сайфуллаева. ЎзР Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент.: Мумтоз сўз, 2011. – 312 б. – Б. 59-61.

morfologik ko'rsatkichsiz sintaktik munosabatli birikmalarni ham avtomatik teglash imkonи paydo bo'ladi. Ushbu holatni quyida bat afsil izohlaymiz.

Boshqa lisoniy hodisa kabi so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qoliplarini tiklash va uning voqelanishi farqlanadi. SB LSQining voqelanishi «lison-nutq» yo'nalishida bo'lib, bu yo'nalish umumiyligidan oraliq ko'rinish orqali xususiylikka – nutqiy hodisaga qarab boradi. Bu borada S.Nazarova tomonidan ishlab chiqilgan LSQlarga alohida e'tibor qaratish muhim. Jumladan, S.Nazarova LSQlarning [$W^{\text{morphologik vosa}} - W^{\text{morphologik vosa}}$] ko'rinishdagi invariant, [$W^{\text{qaratqich kelishigi}} - W^{\text{egalik qo'shimchasi}}$], [$Ism^{\text{qaratqich kelishigi}} - Ism^{\text{egalik qo'shimchasi}}$], [$Ot^{\text{qaratqich kelishigi}} - Ot^{\text{egalik qo'shimchasi}}$], [$Ot_{\text{atoqli}}^{\text{qaratqich kelishigi}} - Ot_{\text{turdosh}}^{\text{egalik qo'shimchasi}}$] kabi variantlarini ajratadi [Nazarova S, 1997:26]. Albatta, til korpusida so'z birikmalarni teglash muammosi umumiyl (invariant) LSQlar bilan hal etilmaydi, balki so'z birikmalarni aniqlashda nisbatan aniqroq qoliplar talab etiladi.

S.Nazarova ushbu LSQning quyi bo'linishlari uning tegishli so'z turkumi tomonidan to'ldirilishi asosida quyidagicha tasniflaydi [Nazarova S, 1997:27].

- 1) [$ot^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow ot^{\text{egalik qo'shimchasi}} = ot^{\text{qaratuvchi}} + ot^{\text{qaralmish}}$]: *kitobning varagi;*
- 2) [$ot^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow sifat^{\text{egalik qo'shimchasi}} = ot^{\text{qaratuvchi}} + sifat^{\text{qaralmish}}$]: *daraxtning mo'rti;*
- 3) [$sifat^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow ot^{\text{egalik qo'shimchasi}} = sifat^{\text{qaratuvchi}} + ot^{\text{qaralmish}}$]: *gulning/qizilining hidi;*
- 4) [$sifat^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow sifat^{\text{egalik qo'shimchasi}} = sifat^{\text{qaratuvchi}} + sifat^{\text{qaralmish}}$]: *olmaning/kattasining chuchugi;*
- 5) [$ot^{\text{turdosh}}^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow sifat^{\text{egalik qo'shimchasi}} = ot^{\text{qaratuvchi}} + son^{\text{qaralmish}}$]: *gulning bittasi;*
- 6) [$son^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow son^{\text{egalik qo'shimchasi}} = son^{\text{qaratuvchi}} + son^{\text{qaralmish}}$]: *o'nning yarmi;*
- 7) [$ot^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow harakat nomi^{\text{egalik qo'shimchasi}} = ot^{\text{qaratuvchi}} + fe'l^{\text{qaralmish}}$]: *Otabekning qaytishi;*
- 8) [$harakat nomi^{\text{qaratqich kelishigi}} \rightarrow ot^{\text{egalik qo'shimchasi}} = fe'l^{\text{qaratuvchi}} + ot^{\text{qaralmish}}$]: *uyalishning o'rni;*

- 9) [harakat nomi ^{qaratqich kelishigi} → harakat nomi ^{egalik qo'shimchasi} = fe'l ^{qaratuvchi} + fe'l ^{qaratuvchi}]: *olmoqning bermog'i;*
- 10) [ot ^{qaratqich kelishigi} → sifatdosh ^{egalik qo'shimchasi} = ot ^{qaratuvchi} + sifatdosh ^{qaralmish}]: *yurakning to'xtagani;*
- 11) [sifatdosh ^{qaratqich kelishigi} → ot ^{egalik qo'shimchasi} = sifatdosh ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: ^{qo'rqqanning ko'zi;}
- 12) [ot ^{qaratqich kelishigi} → ravish ^{egalik qo'shimchasi} = ot ^{qaratuvchi} + ravish ^{qaralmish}]: *mehnatning kecha-kunduzi;*
- 13) [olmosh ^{qaratqich kelishigi} → ot ^{egalik qo'shimchasi} = olmosh ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *mening vatanim;*
- 14) [ravish ^{qaratqich kelishigi} → ot ^{egalik qo'shimchasi} = ravish ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *hozirning huzuri.*

Ushbu qoliplar S.Nazarova tomonidan tadqiq etilgan: yuzlab nutqiy hosilalarda sinab ko'rilgan, umumlashtirilgan. Shuning uchun biz ism+ism qolipli so'z birikmalarining modelini shu qoliplar asosida tuzishimiz mumkin. Buning uchun, avvalo, qolip tarkibidagi ismlarning turini anglatuvchi qismlarni ma'lum belgi bilan, tobelanishni ko'rsatib turuvchi morfologik vositalarning maxsus belgilarini tanlab olamiz. Bunda ot = N, sifat = Adj, son = Num, turdosh ot = N^{sub}, olmosh = Pr, ravish = Prv, harakat nomi = Ger teglari bilan; qaratqich kelishigi = Case (yoki Ss), egalik qo'shimchasi = Possessive (yoki Pos) teglari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, til korpusi uchun so'z birikmalarini sintaktik teglashning ism+ism qolipi uchun quyidagi modellarni taklif qilish mumkin:

- 1) [N^{Cs} → N^{Pos}]: *kitobning varag'i;*
- 2) [N^{Cs} → Adj^{Pos}]: *daraxtning mo'rti;*
- 3) [Adj^{Cs} → N^{Pos}]: *gulning/qizilining hidi;*
- 4) [Adj^{Cs} → Adj^{Pos}]: *olmaning/kattasining chuchugi;*
- 5) [N turdosh^{Cs} → Adj^{Pos}]: *gulning bittasi;*
- 6) [Num^{Cs} → Num^{Pos=}]: *o'nning yarmi;*
- 7) [N^{Cs} → Ger^{Pos=}]: *Nabekning qaytishi;*

- 8) [Ger ^{Cs} → N ^{Pos=}]: *uyalishning o'rni*;
- 9) [Ger ^{Cs} → Ger ^{Pos=}]: *olmoqning bermog'i*;
- 10) [N ^{Cs} → Adjdosh ^{Pos=}]: *yurakning to'xtagani*;
- 11) [Adjdosh ^{Cs} → N ^{Pos=}]: *qo'rqqanning ko'zi*;
- 12) [N^{Cs} → Prv^{Pos=}]: *mehnatning kecha-kunduzi*;
- 13) [Pr ^{Cs} → N ^{Pos=}]: *mening vatanim*;
- 14) [Prv ^{Cs} → N ^{Pos=}]: *hozirning huzuri*.

Shuningdek, zamonaviy sintaksisda so'z birikmasining [ism^{kelishik} qo'shimchasi + fe'l] qolipi ham ajratiladi [H.G'.Ne'matov, R.Sayfullaeva, 2011:67]..

So'z birikmasining bu LSQi birinchi uzvi morfologik shakllangan va shuning uchun SHMJ birikuv omiliga ega va ikkinchi qismda grammatik ko'rsatkich bog'lanish uchun nisbatan ahamiyatsiz bo'lganligi bois, birikuv omillarining MSHJ kombinatsiyasi amal qiladi. Qolipning birinchi uzvini ism turkumiga oid so'zlar to'ldirib, ular hokim uzvga tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari shakllari bilan bog'lanadi. Birinchi uzvi asosida LSQ quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi

- 1) [ism ^{tushum kelishigi} → fe'l];
- 2) [ism ^{jo'nalish kelishigi} → fe'l];
- 3) [ism ^{o'rin-payt kelishigi} → fe'l];
- 4) [ism ^{chiqish kelishigi} → fe'l].

LSQning har bir ko'rinishi ism uzvining bo'linishi asosida yana tarmoqlanadi. Masalan, [ism tushum kelishigi → fe'l] qolipi quyidagi bo'linishlarni beradi [H.G'.Ne'matov, R.Sayfullaeva, 2011:67].

- 1) [ot ^{tushum kelishigi} → fe'l];
- 2) [sifat ^{tushum kelishigi} → fe'l];
- 3) [son ^{tushum kelishigi} → fe'l];
- 4) [olmosh ^{tushum kelishigi} → fe'l];
- 5) [harakat nomi ^{tushum kelishigi} → fe'l].

Ushbu qoliplarga *kitobni/yaxshini/o‘nni ayir, uni gapisirish/o‘qimoq/so‘ramoq/ boshlamoq/ni bas qil kabilarni misol keltirish mumkin.*

Yuqoridagi LSQlar asosida sintaktik teglashning ism+fe’l qolipi uchun [Sub^{Cs3}→ V]; [Sub^{Cs4}→V]; [Sub^{Cs5}→ V]; [Sub^{Cs6}→V] modellarini taklif etsak, ismning ko‘rinishlariga ko‘ra turlari bo‘yicha [N^{Cs3}→ V]; [Adj^{Cs3}→ V]; [Num^{Cs3}→ V]; [Pr^{Cs3}→V]; [Ger^{Cs3}→V] kabi modellar so‘z birikmalarni farqlashga yordam beradi. Bunda ^{Cs3} tushum, ^{Cs4} jo‘nalish, ^{Cs5} o‘rin-payt, ^{Cs6}chiqish kelishigini; Sub ismni, V fe’lni ifodalovchi teg hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, morfologik ko‘rsatkichsiz va morfologik ko‘rsatkichli so‘z birikmasini aniqlashda lisoniy-sintaktik qoliplar asosida tuzilgan modellardan foydalanish sintaktik teglar tizimining mukammal bo‘lishiga olib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Nazarova S. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: filol.fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent: 1997. – 26 b.
2. Zamonaviy o‘zbek tili: Sintaksis./ Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrirlar H.G‘.Ne’matov, R.Sayfullaeva. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent.: Mumtoz so‘z, 2011. – 312 b. – 67-71.
3. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-313952-1.html?page=30>